

Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent

Mehnat patenti nima

Bu Rossiyaga kirish uchun viza talab qilinmaydigan mamlakatlar fuqarolari uchun bu yerda ishlash huquqini beruvchi hujjatdir.

Mehnat patenti qaysi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi

- Rasm
- Familiya va ism
- Tug'ilgan sana
- Fuqarolik
- Mehnat faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etilgan RF mintaqasi

Patent nima uchun kerak

- Rossiyada ishlash huquqini beradi
- RFda qolish muddatini uzaytirish imkonini beradi

Patentni qachon rasmiylashtirish kerak

Rossiyaga kelgan sanadan boshlab 30 kun ichida

Patent qayerda rasmiylashtiriladi

Siz ishlaydigan va migratsiya hisobida turadigan mintaqada ichki ishlar bo'linmasida.

Bu muhim! Bir nechta mintaqada ishlashni rejalashtirgan bo'lsangiz, ularning har birida patent rasmiylashtirish kerak

Patent rasmiylashtirish uchun hujjatlar

- 3x4 sm hajmdagi 2 dona rasm
- pasport va uning notarius tasdiqlagan rus tiliga tarjimasi
- migratsiya kartasi ("Tashrif maqsadi - ishlash" belgisi)
- ITS polisi
- yuqumli kasalliklar va OIVga qarshi ko'rik tibbiy xulosa
- migratsiya hisobiga turganlik haqida bildirishnoma
- rus tili, Rossiya qonunlari va tarixini bilishini tasdiqlovchi hujjat
- jarima to'lovi haqidagi kvitansiya (patent rasmiylashtirish uchun hujjat topshirish muddati buzilgan bo'lsa)

Patent rasmiylashtirish muddati

10 ish kunigacha

Patentning amal qilish muddati

Patentning maksimal amal qilish muddati – 12 oy.

Muhim

2 oy ichida ish haqida bildirishnoma va ish beruvchi bilan shartnomangiz nusxasini ichki ishlar bo'linmasiga topshirish zarur. Bildirishnoma yuborilmasa, patent bekor qilinishi mumkin.

Patentni olish uchun patentning butun amal qilish muddati uchun soliq to'lash zarur